

OTA-ONALAR UCHUN 5 TA MOLIYAVIY QOIDA



Odamlar asta sekinlik bilan pul muhim, lekin baribir u siz xohlagan narsaga erishishingizda vosita ekanligini va albatda insonning xarakteri va ustuvorliklariga bog'liqligini tushuna boshladilar. Ota-onalar, boshqa narsalar qatori, farzandiga shaxsiy namuna orqali moliyaviy savodxonlik asoslarini singdirishlari kerak.

1-QOIDA. PUL E'TIBORSIZLARNI KECHIRMAYDI

Bu fikr g'alati bo'lib tuyulishi mumkin. Chunki ko'pchilik pulni shunchaki rang-barang qog'oz parchalari yoki mos kelmaydigan tangalar deb bilishadi. Shuning uchun ular qanday qilib pul "kechirishi" yoki "kechirmasligi" mumkin, deyishadi. Ammo pul ijtimoiy munosabatlarning, ya'ni oxir-oqibat odamlar o'rtasidagi munosabatlarning mahsuli ekanligini eslasak, haqiqat aniqroq bo'ladi.

2-QOIDA. HAMMA NARSANI PUL HAL QILMAYDI

Pulning ahamiyatini ortiqcha baholamang. Axir, hayotdagi eng muhim narsalarni – hurmat, sevgi va do'stlikni ular uchun sotib olish mumkin emasligi aniq. Shuning uchun, bolaga boshidanoq dunyo pul atrofida aylanmasligini, boshqa ko'plab muhim, qiziqarli va munosib narsalar borligini o'rgatib borish lozim.

3-QOIDA. OILANGIZ BILAN PUL HAQIDA OCHIQ GAPLASHING

Ota-onalar orasida oila davrasida, farzandlari bilan pul haqida gapirmaydigan, ular bilan oilaviy moliyaviy masalalarni muhokama qilmaydiganlar juda ko'p. Nega desangiz, "Bu oilaning siri", "Pul bolani buzadi", deyishadi. Biroq, bu katta xato. Chunki ota-ona aytmasa, bola pul qaerdan, qanday kelganini, qanday va nimaga sarflanayotganini bilmaydi.

4-QOIDA. BOLALARGA CHO'NTAK PULI BERING

Ko'pincha bolalar birinchi pullarini o'smirlik davrida olishadi. Biroq, mutaxassislarning fikriga ko'ra, boshlang'ich maktabdan oldin ham bola kichik mustaqil xaridlarni amalga oshirishga tayyor. Bu kelajakda uning pulga bo'lgan munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5-QOIDA. BOLANGIZGA ISHONING

Ota-onalar ko'pincha bolaning cho'ntak pulini mantiqsiz sarflashi yoki hatto yo'qotishi mumkinligidan qo'rqib, "ko'z oldida" bo'lishini talab qilishadi. Natijada bolalar pulni ota-onasidan yashirishni o'rganadilar yoki otasi yoki onasining kutilmagan qarori tufayli yo'qotmaslik uchun uni imkon qadar tezroq sarflashga intilishadi.

